

YASHIL IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RIVOJLANISHI

Laylo Alikulova

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida xizmat ko'rsatish sohalarining transformatsiyalashuvi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari (stat.uz) asosida olib borilib, xizmatlar sektoridagi asosiy ko'rsatkichlarning dinamikasi hamda strukturaviy o'zgarishlari qiyosiy usulda baholangan. Natijalar yashil iqtisodiyot tamoyillarining xizmatlar sohasida ekologik samaradorlik, resurs tejankorlik va raqamli transformatsiyani jadallashtirishdagi rolini ko'rsatadi. Olingan xulosalar xizmat ko'rsatish sohalarini barqaror rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish sohalari, yalpi qo'shilgan qiymat, qiyosiy tahlil, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, transport va logistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari.

СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ

Лайло Аликулова

Аннотация. В статье анализируются процессы трансформации и тенденции развития сфер услуг в условиях перехода к зелёной экономике. Исследование выполнено на основе официальных статистических данных Республики Узбекистан (stat.uz), при этом динамика ключевых показателей и структурные изменения в секторе услуг оценены с применением сравнительного метода. Полученные результаты отражают роль принципов зелёной экономики в повышении экологической эффективности, ресурсосбережении и ускорении цифровой трансформации в сфере услуг. Сформулированные выводы послужили основой для разработки научно-практических рекомендаций по обеспечению устойчивого развития сфер услуг.

Ключевые слова: зелёная экономика, сферы услуг, валовая добавленная стоимость, сравнительный анализ, цифровая трансформация, устойчивое развитие, транспорт и логистика, информационно-коммуникационные технологии, финансовые услуги, торговые услуги.

STRUCTURAL CHANGES AND DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE CONTEXT OF GREEN ECONOMY TRANSFORMATION

Laylo Alikulova

Abstract. The article analyzes the processes of transformation and development trends of the service sectors under the conditions of transition to a green economy. The

study is based on official statistical data of the Republic of Uzbekistan (stat.uz), with the dynamics of key indicators and structural changes in the service sector assessed using a comparative approach. The results demonstrate the role of green economy principles in enhancing environmental efficiency, promoting resource efficiency, and accelerating digital transformation in the service sector. The findings provide a basis for formulating scientific and practical recommendations aimed at ensuring the sustainable development of service sectors.

Keywords: green economy, service sectors, gross value added, comparative analysis, digital transformation, sustainable development, transport and logistics, information and communication technologies, financial services, trade services.

Kirish

Bugungi kunda global miqyosda barqaror taraqqiyot, ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalarining dolzarblashuvi iqtisodiyotni yangi rivojlanish modeliga — yashil iqtisodiyotga o'tkazishni taqozo etmoqda. Ushbu yo'nalish O'zbekiston Respublikasida ham bu davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida mamlakatni 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarining ekologik barqarorligini ta'minlash va xizmatlar sektorini rivojlantirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qarorida “yashil iqtisodiyot”ga o'tish bo'yicha strategik vazifalar, jumladan, energiya samaradorligini oshirish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash choralari belgilab berilgan [2]. Ushbu vazifalar doirasida xizmatlar sohasini modernizatsiyalash va uning innovatsion rivojlanishini jadallashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmonida mamlakatda raqamli iqtisodiyot va raqamli xizmatlarni rivojlantirish, davlat va xo'jalik boshqaruvida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish vazifalari belgilangan bo'lib, bu xizmatlar sektorining transformatsiyalashuvi va samaradorligini oshirish uchun muhim institutsional asos yaratadi [3]. Raqamli o'zgarish yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan uyg'unlashib, xizmat ko'rsatish sohasida ekologik samaradorlik va resurslarni tejashni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5117-son Qarorida xizmatlar sohasini rivojlantirish, yangi xizmat turlarini joriy etish, hududlarda xizmatlar sektorining ulushini oshirish orqali iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlash vazifalari belgilangan [4]. Mazkur normativ-huquqiy jihatdan “yashil” iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasining rivojlanishini ta'minlashda mustahkam institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining o'zgarishi va rivojlanish yo'nalishlari Prezident farmon va qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog'liq holda o'rganish, statistic ma'lumotlar asosida ularning amaliy tatbiqini tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar doirasida yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Yashil iqtisodiyot tushunchasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u barqaror rivojlanishni ta'minlash, ekologik xavfsizlikni saqlash va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan. Ushbu konsepsiyaning nazariy asoslari B. Commoner, D. Pearce va E. Barbier tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, mualliflar iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini asoslab berganlar [1].

Xorijiy olimlar — M. Porter va M. van der Linde tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish omili sifatida talqin etilgan [2]. J. Sachs, N. Stern hamda OECD va UNEP ekspertlari ishlarida esa yashil iqtisodiyotga o'tish xizmatlar sektorida yuqori qo'shimcha qiymat yaratish va kam uglerodli rivojlanishni ta'minlash imkonini beruvchi strategik yo'nalish sifatida baholangan [3].

Xizmat ko'rsatish sohalarining yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlanishi masalalari P. Drucker, R. Florida va M. Castells tadqiqotlarida bilimlar iqtisodiyoti, inson kapitali va raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilingan [4]. Ushbu olimlar xizmatlar sektorining transformatsiyasi innovatsiyalar, raqamli platformalar va ekologik mas'uliyatning kuchayishi orqali amalga oshirishini ta'kidlaydilar [5].

MDH va rivojlangan mamlakatlar tajribasiga bag'ishlangan ilmiy asarlardan (A. Tatarkin, S. Glazyev, V. Mau) yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari xizmatlar sektorining strukturaviy o'zgarishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani qayd etilgan [6]. Xususan, transport, turizm, moliyaviy va axborot-kommunikatsiya xizmatlarida energiya samaradorligi va ekologik standartlarning kuchayishi asosiy tendensiya sifatida ko'rsatilgan [7].

O'zbekiston olimlari — A. Vaxabov, B. Xodiev, Sh. Mustafakulov va U. Umarov tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda xizmatlar sektorining o'rni, uning yalpi ichki mahsulot va bandlikdagi ulushi hamda institutsional rivojlanish masalalari tahlil qilingan [8]. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini xizmat ko'rsatish sohalariga joriy etish masalalari umumiy jihatdan yoritilgan bo'lib, ularni rasmiy statistik ma'lumotlar asosida qiyosiy va tizimli tahlil qilish masalasi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan [9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ekologik siyosat, raqamli transformatsiya va institutsional islohotlarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida mazkur masalani rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslanib qiyosiy tahlil etish ilmiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot nazariy va empirik tahlil uyg'unligiga asoslangan.

Empirik qism O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Xizmatlar sektori bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar yillar kesimida umumlashtirilib, ularning dinamikasi va strukturaviy o'zgarishlari o'rganildi. Tadqiqotda qiyosiy va iqtisodiy-statistik tahlil usullari qo'llanildi. Olingan natijalar jadval va diagrammalar yordamida vizuallashtirildi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar

Yashil iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanish tendensiyalarini baholash maqsadida O'zbekiston Respublikasida tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotda transport va saqlash, axborot va aloqa (AKT), ulgurji va chakana savdo hamda moliyaviy xizmatlar yo'nalishlari yashil iqtisodiyot bilan uzviy bog'liq asosiy xizmat turlari sifatida tanlab olindi [10].

1-jadval

Yashil iqtisodiyot bilan bog'liq xizmatlar sohalarining yalpi qo'shilgan qiymati dinamikasi (2014–2024 yy., mlrd so'm)

Yil	Transport va saqlash	AKT (axborot va aloqa)	Ulgurji va chakana savdo	Moliyaviy xizmatlar
2014	570,7	3723,9	17852,7	4998,8
2017	1900,4	7893,2	28784,8	19636,8
2020	3100,0	10211,9	56609,4	27888,9
2022	4594,2	12384,4	81010,9	35778,0
2024	7855,1	18678,8	89288,2	63554,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (stat.uz) asosida muallif tomonidan tuzildi [11].

Transport va saqlash xizmatlari bo'yicha tahlil

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, transport va saqlash xizmatlarining yalpi qo'shilgan qiymati 2014-yildagi 570,7 mlrd so'mdan 2024-yilda 7855,1 mlrd so'mga yetib, qariyb 13,7 baravar o'sishni ko'rsatgan. Ushbu tendensiya transport-logistika tizimlarida energiya tejamkor texnologiyalar, raqamli marshrutlash va optimallashtirilgan tashish jarayonlarining joriy etilishi bilan izohlanadi. Bu holat transport xizmatlarining yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirayotganini ko'rsatadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlari

AKT xizmatlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat 2014–2024 yillarda 3723,9 mlrd so'mdan 18678,8 mlrd so'mga oshgan bo'lib, bu sohada 5 baravardan ortiq o'sish kuzatilgan. AKT xizmatlarining jadal rivojlanishi raqamli iqtisodiyot, elektron xizmatlar va masofaviy boshqaruv tizimlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lib, yashil iqtisodiyot doirasida resurslardan samarali foydalanish va energiya sarfini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Ulgurji va chakana savdo xizmatlari

Ulgurji va chakana savdo xizmatlari yalpi qo'shilgan qiymat hajmi bo'yicha xizmatlar sektori ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, mazkur ko'rsatkich 2014-yilda 17852,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga


kelib 89288,2 mlrd soʻmga yetgan. Savdo sohasidagi oʻsish elektron savdo platformalarining rivojlanishi, logistika zanjirlarining qisqarishi va resurs tejamkor savdo modellarining joriy etilishi bilan bogʻliq boʻlib, yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos keladi.

Moliyaviy xizmatlar sohasining rivojlanishi

Moliyaviy xizmatlar sohasida ham sezilarli ijobiy dinamika kuzatiladi. 2014-yilda 4998,8 mlrd soʻmni tashkil etgan yalpi qoʻshilgan qiymat 2024-yilda 63554,9 mlrd soʻmga yetib, 12 baravarga yaqin oʻsishni koʻrsatgan. Bu jarayon raqamli bank xizmatlari, masofaviy moliyaviy operatsiyalar va yashil loyihalarni moliyalashtirish instrumentlarining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Qiyosiy natijalar

Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, 2014–2024 yillarda yashil iqtisodiyot bilan bogʻliq xizmatlar ichida ulgurji va chakana savdo hamda moliyaviy xizmatlar yalpi qoʻshilgan qiymat hajmi boʻyicha yetakchi boʻlgan boʻlsa, transport va AKT xizmatlari oʻsish surʼatlari boʻyicha eng dinamik yoʻnalishlar sifatida ajralib turadi. Bu holat xizmatlar sektorining yashil va raqamli transformatsiya sharoitida strukturaviy jihatdan sifat bosqichiga koʻtarilayotganini tasdiqlaydi.



1-rasm. Yashil iqtisodiyot bilan bogʻliq xizmatlar sohasining yalpi qoʻshilgan qiymati dinamikasi (2014–2024 yy., mlrd soʻm)

2014–2024 yillar davomida yashil iqtisodiyot bilan bevosita bogʻliq boʻlgan xizmatlar sohalari — transport va saqlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ulgurji va chakana savdo hamda moliyaviy xizmatlarning yalpi qoʻshilgan qiymati dinamikasi aks ettirilgan. Diagramma maʼlumotlari barcha tanlangan xizmat yoʻnalishlarida barqaror oʻsish tendensiyasi kuzatilganini koʻrsatadi.

Xususan, ulgurji va chakana savdo xizmatlari yalpi qoʻshilgan qiymat hajmi boʻyicha yetakchi oʻrinni egallab, 2014-yildagi 17 852,7 mlrd soʻmdan 2024-yilda 89 288,2 mlrd soʻmga yetgan. Moliyaviy xizmatlar sohasida ham sezilarli oʻsish qayd etilib, mazkur koʻrsatkich mos ravishda 4 998,8 mlrd soʻmdan 63 554,9 mlrd soʻmga

oshgan. Bu holat raqamli bank xizmatlari va yashil moliyalashtirish instrumentlarining kengayib borayotgani bilan izohlanadi.

Transport va saqlash hamda AKT xizmatlari nisbatan kichik hajmga ega bo'lishiga qaramasdan, o'sish sur'atlari bo'yicha eng dinamik yo'nalishlar sifatida ajralib turadi. Transport xizmatlarida logistika jarayonlarining optimallashtirilishi va energiya tejamkor texnologiyalarning joriy etilishi, AKT sohasida esa raqamli xizmatlar va elektron platformalarning kengayishi yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos rivojlanishni ta'minlamoqda. Umuman olganda, diagrammada keltirilgan ma'lumotlar xizmatlar sektorining yashil va raqamli transformatsiya sharoitida strukturaviy jihatdan mustahkamlanib borayotganini hamda uning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tahlil natijalari 2014–2024 yillarda O'zbekistonda yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohalarining barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etganini ko'rsatdi. Xususan, ulgurji va chakana savdo hamda moliyaviy xizmatlar yalpi qo'shilgan qiymat hajmi bo'yicha yetakchi bo'lib, transport va saqlash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari o'sish sur'atlari jihatidan eng dinamik yo'nalishlar sifatida ajralib turdi. Bu holat xizmatlar sektorining yashil va raqamli transformatsiya sharoitida strukturaviy jihatdan mustahkamlanib borayotganini tasdiqlaydi.

Takliflar

1. Transport va saqlash xizmatlarida energiya tejamkor logistika va raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish.
2. AKT xizmatlarini rivojlantirish orqali elektron xizmatlar va masofaviy boshqaruv tizimlarini kengaytirish.
3. Savdo sohasida ekologik barqaror ta'minot zanjirlari va elektron savdo platformalarini qo'llab-quvvatlash.
4. Moliyaviy xizmatlarda yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini va "yashil moliya" instrumentlarini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmoni. — Toshkent, 28.01.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasini yashil iqtisodiyotga o'tkazish bo'yicha strategik chora-tadbirlar to'g'risida" PQ–4477-son Qarori. — Toshkent, 04.10.2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF–6079-son Farmoni. — Toshkent, 05.10.2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xizmatlar sohasini rivojlantirish va hududlarda xizmatlar sektorining ulushini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida PQ–5117-son Qarori. — Toshkent, 11.05.2021.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati (joriy narxlarda, yillik). — Rasmiy statistika ma’lumotlari. — stat.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar. — Rasmiy statistika ma’lumotlari. — stat.uz.
7. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Economy: Pathways to Sustainable Development. — Nairobi: UNEP, 2011.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Green Growth Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2017.